

## 2026 YILNING AQSH-ISROIL TOMONIDAN ERONGA QARSHI URISHI, YADRO SIYOSATI VA EPSTEIN FAYLLARINING TARQALISHI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy unverseteti

*siyosatshunoslik yo'nalaishi talabasi*

*Begboyev Islomjon*

### ANNOTATSIYA

2026 yilning 28 fevralida AQSH va Isroil Eronga qarshi "Operation Epic Fury" (AQSH) va "Operation Roaring Lion" (Isroil) nomidagi yirik birgalikdagi harbiy operatsiyalarni boshladi. Bu urush nafaqat geopolitik va yadro siyosatining natijasi, balki ichki siyosiy muammolar (Epstein fayllari, past reyting, iqtisodiy qiyinchiliklar) va strategik manfaatlarining murakkab birlashmasi bo'ldi. Ushbu maqolada operatsiyaning sabablari, maqsadlari, global ta'sirlari, Epstein fayllarining urushga aloqasi hamda hozirgi kundagi harbiy ahvol akademik tahlil orqali yoritiladi.

**Kalit so'zlar:**Eron, AQSH, Isroil, yadro dasturi, geopolitika, Epstein, 2026, P5+5,

### KIRISH

2026 yilning 28 fevralida Isroil va AQSH Eron bo'ylab bir qator shaharlar — Tehron, Isfaxon, Qum, Karaj va Kirmonshohda joylashgan harbiy va hukumat ob'ektlariga qo'shma havo zarbalari berdi. Bu — Iroq urushidan buyon AQSHning Yaqin Sharqdagi eng katta harbiy harakati bo'ldi. Ushbu maqola operatsiyaning tarixiy ildizlari, geopolitik va yadro-strategik jihatlarini, shuningdek Epstein fayllari bilan vaqtinchalik bog'liqligini tahlil qiladi.

### TARIXIY FON: ERON YADRO DASTURI VA JCPOA (2015–2018)

2015 yilning 14 iyulida Eron va P5+1 davlatlar o'rtasida "Qo'shma Keng Miqyosidagi Amal Rejasi" (JCPOA) imzolandi. Bu kelishuv Eron yadro dasturini xalqaro nazorat ostida cheklashga qaratilgan edi. 2018 yilning 8 mayida Trump



JCPOA dan chiqdi va "maksimal bosim" siyosatini joriy etdi. Buning oqibatida Eron yadro faolligini keskin oshirdi. 2023 yil fevralida MAGATE 84% boyitilgan uran topganini e'lon qildi — bu yadro qurolini yaratish uchun yetarli darajaga juda yaqin edi.

#### 2023–2025 YILLARDAGI ESKALATSIYA

2023 yilning 7 oktyabrda Hamas Isroilga hujum uyushtirdi. Buning ortidan Isroil va Eron o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvlar kuchayib bordi: 2024 yilda Isroil Eron konsulxonasini Shamda bombardimon qildi, Eron esa javoban 200 ballistik raketa otdi. 2024 yil iyunida Hamas rahbari Ismoil Haniya Tehronada o'ldirildi; sentyabrda Hezbollah rahbari Hasan Nasralla ham halok bo'ldi.

2025 yilning iyunida "Operation Midnight Hammer" doirasida AQSH va Isroil Eronning yadro ob'ektlari hamda infratuzilmasiga birinchi to'g'ridan-to'g'ri zarba berdi.

#### 2026 YILI: "OPERATION EPIC FURY" VA "OPERATION ROARING LION"

2026 yil 6 fevralda Eron va AQSH Ummon poytaxti Maskatda bilvosita yadro muzokaralarini olib bordi. Fevral o'rtasida Eron neft eksportini uch barobarga oshirdi va neft zaxiralarini kamaytirdi.

2026 yilning 27 fevralida Ummon tashqi ishlar vaziri Badr al-Busaidi "muhim yutuq" qo'lga kiritilganini va Eron boyitilgan uranni hech qachon to'plamaslikka, MAGATE tomonidan to'liq tekshirishga rozi bo'lganini, hatto mavjud boyitilgan uranni "imkon qadar eng past darajaga" tushirishga kelishganini e'lon qildi. Vazir "tinchlik yaqin" dedi.

Ammo 2026 yilning 28 fevralida AQSH prezidenti Trump soat 02:00 EST da Truth Social'da sakkiz daqiqalik video orqali urush boshlanganini e'lon qildi.

Mudofaa vaziri Pit Xegseth matbuot anjumanida: "Operation Epic Fury'ning aniq missiyasi — Eron harbiy tahdidlari va yadro imkoniyatlarini yo'q qilish" dedi.



"Bu 'rejim almashtirish urushi' emas, lekin rejim o'zgardi va dunyo bunga minnatdor" deb qo'shib qo'ydi.

Eron davlat axborot vositasi 28 fevralda Ali Xameneiyning Tehron markazidagi rahbariyat qarorgohi zarbasi natijasida halok bo'lganini yig'lab e'lon qildi.

Xameneiyning o'limi yangi Ali Xameneiy sayloviga turtki berdi: 1 artida Eron konstitutsiyasiga muvofiq Vaqtinchalik Rahbarlik Kengashi tashkil etildi. 2026 yilning 8 martida Mojtaba Xameneiy otasining o'rniga Oliy Rahbar etib saylandi.

CSIS (Strategik va Xalqaro Tadqiqotlar Markazi) ma'lumotlariga ko'ra, "Operation Epic Fury"ning dastlabki 100 soati 3,7 milliard dollarga — kuniga taxminan 891 million dollarga — tushdi. Bu xarajatlarning katta qismi budjetda nazarda tutilmagan edi.

#### ERON JAVOB ZARBALARI VA MINTAQAVIY ESKALATSIYA

Eron raketalar va dronlarni Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Quvayt, Qatar, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Ummon, Kipr va Iroqdagi Kürd ob'ektlariga qarata otdi.

2 martda Quvaytdagi AQSH elchixonasiga Eron raketa zarba berdi va Rubio elchixonani muayyan vaqtgacha yopdi. Kuvaytdagi AQSH yerda joylashgan qo'shinlari orasidan 3 nafar askar halok bo'ldi, beshta askar og'ir yaralandi.

Urush boshlanganidan bir hafta o'tib: Eronda kamida 1 332 fuqaro halok bo'ldi, Livanda 200 dan ortiq odam o'ldi, Isroilda 11 kishi hayotini yo'qotdi, 6 nafar amerikalik askar halok bo'ldi. BMT hisob-kitobiga ko'ra Yaqin Sharq bo'ylab kamida 330 000 kishi majburan ko'chirildi.

Iordaniya, Hormuz bo'g'ozida parvozlari to'xtatildi. Eron Hormuz bo'g'ozini blokladiga olish choralarini ko'ra boshladi.

2026 yilning 10 martida AQSH harbiy kuchlari Hormuz bo'g'ozini yaqinida 16 ta Eron kon qo'yadigan kemani yo'q qildi.

## HOZIRGI AHVOL

Urushning 11-kunida Mudofaa vaziri Xegseth: "Bugun Eron ichidagi eng kuchli zarba kunimi bo'ladi" deb e'lon qildi. AQSH eng ko'p qiruvchi va bombardimonchi samolyotlarini yo'naltirdi.

Tehronning sharqiy tumanidagi turar-joy binolari zarbasi natijasida kamida 40 kishi halok bo'ldi. Eron tashqi ishlar vazirining muovini Qazim G'aribobodi Xitoy, Rossiya va Frantsiyaning ateskes bo'yicha Eron bilan bog'langanini ma'lum qildi.

Trump Truth Social'da: "Eron bilan faqat so'zsiz taslim bo'lish shartida muzokaralar olib boraman. Taslim bo'lgandan keyin biz Eronni iqtisodiy jihatdan yangi qurish uchun yordam beramiz — 'MAKE IRAN GREAT AGAIN (MIGA!)" deb yozdi.

Eron tashqi ishlar vaziri Araghchi esa: "Biz ikki marta muzokaralar olib bordik — iyunda va fevralda — har ikki marta ham muzokaralar davomida bizni bombardimon qildi. Shuning uchun biz yana muzokaraga kirish uchun asos ko'rmaymiz" dedi.

## DIPLOMATIYANING BUZILISHI VA EPSTEIN FAYLLARI BILAN BOG'LIQ TAHLIL

AQSH Yaqin Sharqdagi harbiy kuchini 2003 yil Iroq urushidan buyon eng yirik darajaga olib kelgan paytda Eron bilan bilvosita muzokaralar olib borildi.

Davlat kotibi Rubio: "Isroil Eronga zarba berishni rejalashtirayotganini bilgan edik va bu AQSH qo'shinlariga qarshi zarbani keltirib chiqarishi mumkinligini tushungan edik. Agar biz avval hujum qilmasak, ko'proq qurbonlar bo'lishi aniq edi" dedi.

Stimson Center ekspertlarining bahosi aniq: "Prezident Trump Kongressning roziligisiz, jiddiy jamoatchilik muhokamasiz va keng jamoatchilikning kuchli qarshiligiga qaramay Eronga qarshi urush boshladi." Washington Institute esa shunday yozdi: "Trump ma'muriyati so'nggi muzokaralar bosqichidan kelgusi hujum uchun faqat niqob sifatida foydalangan bo'lishi mumkin."



Epstein fayllari va urush o'rtasidagi vaqtinchalik bog'liqlik

2025 yilning noyabrida Kongress "Epstein Files Transparency Act" qonunini qabul qildi. 2025 yilning 19 dekabridan 2026 yilning yanvarigacha Adliya vazirligi 3,5 milliondan ortiq Epstein bilan bog'liq sahifalarni ommaga e'lon qildi. Bu hujjatlarda Trump ismi 1 000 martadan ko'p tilga olingan.

Siyosiy analitiklar bir muhim moslikni qayd etishdi: Epstein qidiruvlari Google'da keskin kamaygan payt aynan urush boshlangan vaqtga to'g'ri keldi. Demokratlar safidan Gakeem Jeffris: "Bu juda katta chalg'itish" dedi. Kongressman Ron Daniels esa: "Operation Epic Fury — Epstein, iqtisodiy muammolar va Trampning pasayib borayotgan reyting masalasidan e'tiborni chalg'itish uchun qilingan katta harakat" deb bildirdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu bog'liqlik hozircha siyosiy tahlilchilar tomonidan ilgari surilgan nazariya bo'lib, to'liq isbotlanmagan.

#### URUSHNING GEOPOLITIK VA IQTISODIY OQIBATLAR.

Neft narxi \$100 dan oshib ketdi. Trump Truth Social'da neft narxining o'sishi "Eron yadro tahdidini yo'q qilish uchun to'lanadigan kichik narx" ekanligini yozdi.

2026 Eron urushi global sayohat va savdoni izdan chiqardi, Yaqin Sharqdagi parvozlarni to'xtatdi va kemalarni Hormuz bo'g'ozi hamda Qizil Dengizdan chetlab o'tishga majbur qildi.

Urushni AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlagan davlatlar: Ukraina, Albaniya, Argentina, Avstraliya, Kanada, Chexiya, Finlandiya, Germaniya, Latviya, Litva va boshqalar. Urushga qarshi chiqqanlar: Xitoy, Rossiya, Braziliya, Pokiston, Norvegiya va boshqalar.

#### XULOSA

"Operation Epic Fury" va "Operation Roaring Lion" — zamonaviy geopolitikaning eng murakkab va ziddiyatli voqealaridan biridir. Uning asosiy sabablari quyidagilardir. **Strategik maqsad:**Eron yadro dasturini va ballistik raketa infratuzilmasini yo'q qilish, mintaqaviy gegemoniyani qaror toptirish.



**Diplomatik paradoksi** tinchlik muzokaralari so'nggi bosqichida, Eron amalda yadro boyitishni kamaytira boshlagan paytda urush boshlandi. **Ichki siyosiy bosimi** Epstein fayllari va past reyting masalasi urush boshlanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin bu tahlilchilar tomonidan "distraktsiya strategiyasi" sifatida baholanmoqda. **Hozirgi holat** urush 11-kuniga kirmoqda. AQSH har kuni yanada kuchli zarba bermoqda. Xitoy, Rossiya va Frantsiya ateşkes bo'yicha Eron bilan muzokaralar olib bormoqda. Urushning oxiri hali ko'rinmayapti.

Rossiya prezidentining matbuot kotibi Dmitriy Peskov aytganidek: "Bu urushni kim boshlagan bo'lsa, o'sha tugatishi kerak." Muammo shundaki — hozir ikkala tomon ham taslim bo'lishni rad etmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rodgers, J., & Schiff, B. (2026, 1 mart). *Operation Epic Fury and the Remnants of Iran's Nuclear Program*. Center for Strategic and International Studies (CSIS). <https://www.csis.org/analysis/operation-epic-fury-and-remnants-irans-nuclear-program>
2. Cancian, M. F., & Park, C. H. (2026, 9 mart). *\$3.7 Billion: Estimated Cost of Epic Fury's First 100 Hours*. Center for Strategic and International Studies (CSIS). <https://www.csis.org/analysis/37-billion-estimated-cost-epic-furys-first-100-hours>
3. Bingen, K. A., & Karako, T. (2026, 5 mart). *Epic Fury: The Campaign Against Iran's Missile & Nuclear Infrastructure*[Konferentsiya transkripsiyasi]. Center for Strategic and International Studies (CSIS). <https://www.csis.org/analysis/epic-fury-campaign-against-irans-missile-nuclear-infrastructure>
4. Stimson Center. (2026, 1 mart). *Experts React: What the Epic Fury Iran Strikes Signal to the World*. <https://www.stimson.org/2026/experts-react-what-the-epic-fury-iran-strikes-signal-to-the-world/>



5. Stimson Center. (2026, 9 mart). *After Operation Epic Fury: Debating the Future of Iran's Nuclear Project*. <https://www.stimson.org/2026/after-operation-epic-fury-debating-the-future-of-irans-nuclear-project/>

6. Stimson Center. (2026, 6 mart). *Who Will Rule Iran in a Widening Middle East War?* <https://www.stimson.org/2026/who-will-rule-iran-in-a-widening-middle-east-war/>

7. Orion, A., Eisenstadt, M., Dages, H., Clawson, P., Ghaddar, H., Longley Alley, A., & Nephew, R. (2026, 1 mart). *Epic Fury and Roaring Lion: From War Scenarios to Pressing Postwar Questions in Iran*. The Washington Institute for Near East Policy. <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/epic-fury-and-roaring-lion-war-scenarios-pressing-postwar-questions-iran>

8. Rumley, G., Tugendhat, H., Borshchevskaya, A., Cagaptay, S., & Medini, S. (2026, 6 mart). *Great Power Spillover from the Iran War: Implications for China, Russia, Turkey, and Europe*. The Washington Institute for Near East Policy. <https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/great-power-spillover-iran-war-implications-china-russia-turkey-and-europe>

9. Atlantic Council. (2026, 1 mart). *Experts React: The US and Israel Just Unleashed a Major Attack on Iran. What's Next?* <https://www.atlanticcouncil.org/dispatches/experts-react-the-us-and-israel-just-unleashed-a-major-attack-on-iran-whats-next/>

10. Doha Institute for Graduate Studies. (2026, mart). *Operation Epic Fury: Washington's Contradictory War Aims in Iran*. [://www.dohainstitute.org/en/PoliticalStudies/Pages/operation-epic-fury-washington-contradictory-war-aims-in-iran.aspx](https://www.dohainstitute.org/en/PoliticalStudies/Pages/operation-epic-fury-washington-contradictory-war-aims-in-iran.aspx)

11. Observer Research Foundation (ORF). (2026, 1 mart). *US-Israel Strikes on Iran: Experts React to "Operation Epic Fury"*. <https://www.orfonline.org/research/us-israel-strikes-on-iran-experts-react-to-operation-epic-fury>



12. Institute for Counter-Terrorism (ICT). (2026, 3 mart). *Operation "Epic Fury": SITREP (3 MAR 2026)*. <https://ict.org.il/operation-epic-fury-sitrep-3-mar-2026/>

13. Institute for Counter-Terrorism (ICT). (2026, 10 mart). *Operation "Epic Fury": SITREP (10 MAR 2026)*. <https://ict.org.il/operation-epic-fury-sitrep-10-mar-2026/>

14. Defense-Update. (2026, 4 mart). *Operation Epic Fury / Roaring Lion — Weekly Defense Update*. [https://defense-update.com/20260303\\_epic-fury.html](https://defense-update.com/20260303_epic-fury.html)

15. Army Recognition. (2026, 28 fevral). *US and Israel Launch Operation Epic Fury Against Iran Nuclear Program and Missile Arsenal*. <https://www.armyrecognition.com/news/army-news/2026/us-israel-launch-operation-epic-fury-against-iran-nuclear-program-and-missile-arsenal>

16. White House. (2026, mart). *Peace Through Strength: President Trump Launches Operation Epic Fury to Crush Iranian Regime, End Nuclear Threat*. <https://www.whitehouse.gov/articles/2026/03/peace-through-strength-president-trump-launches-operation-epic-fury-to-crush-iranian-regime-end-nuclear-threat/>

17. U.S. Department of Justice. (2026, 1 fevral). *Department of Justice Publishes 3.5 Million Responsive Pages in Compliance with the Epstein Files Transparency Act*. <https://www.justice.gov>

18. Britannica. (2026). *2026 Iran Conflict: Strike, Ceasefire, Attack, Nuclear Program, Ayatollah Khamenei*. <https://www.britannica.com/event/2026-Iran-Conflict>

19. Wikipedia. (2026). *2026 Iran War*. [https://en.wikipedia.org/wiki/2026\\_Iran\\_war](https://en.wikipedia.org/wiki/2026_Iran_war)

20. Stars and Stripes. (2026, 8 mart). *The Mother of All Commando Raids': US Forces May Need to Secure Uranium in Iran, Analysts Say*. [https://www.stripes.com/theaters/middle\\_east/2026-03-08/boots-on-the-ground-analysts-20994225.html](https://www.stripes.com/theaters/middle_east/2026-03-08/boots-on-the-ground-analysts-20994225.html)



21. NPR. (2025, 12 noyabr) *Trump's Name Appears in New Epstein Files Released by Congress*. <https://www.npr.org>

22. NPR. (2025, 23 dekabr). *Justice Department Releases More Epstein Files and Some Mention Trump*. <https://www.npr.org>

23. CBS News. (2025, 24 dekabr). *DOJ Releases Huge Set of Epstein Files with Many Mentions of Trump, Says More Documents to Come*. <https://www.cbsnews.com>

24. CNN Politics. (2026, 31 yanvar). *3 Million New Documents Tell Us About Trump's Ties to Jeffrey Epstein*. <https://www.cnn.com>

25. United Nations. (1945). *Charter of the United Nations*, Article 2(4). <https://www.un.org/en/about-us/un-charter>

26. Council on Foreign Relations (CFR). (2024). *Iran's Nuclear Program From ma'lumoti*. <https://www.cfr.org/background/irans-nuclear-program>

27. House of Commons Library. (2026, mart). *US-Israel Strikes on Iran: February/March 2026* [Research Briefing]. <https://commonslibrary.parliament.uk>

